


Alisher Navoiy asarlari qo'lyozmalariga bag'ishlangan monografiya nashr etildi

O'zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyi bo'lim mudiri, t.f.d., professor Abdumajid Madraimovning "Alisher Navoiy badiiy asarlarining XV-XVI asrlardagi qo'lyozmalari" nomli monografiyasi nashr etildi.

А.А.МАДРАИМОВ

АЛИШЕР НАВОЙЙ БАДИЙ АСАРЛАРИНИНГ XV-XVI АСРЛАРДАГИ ҚҮЛЁЗМАЛАРИ



Alisher Navoiyning yirik davlat arbobi sifatidagi faoliyati, taraqqiyatining qarashlari, tarixga oid va badiiy asarlari kitobat san'ati ahli uchun bitmas-tuganmas ilhom manbai bo'lib kelganligi tarixdan ma'lum. Uning

ilg'or insonparvarlik g'oyalari hamda badiiy-estetik qarashlarini, boy ijodiy va ma'naviy merosini bugungi mustaqillik sharoitida tarix ilmi, madaniyat va kitobat san'ati nuqtai-nazaridan maxsus tadqiq qilish xalqimiz qadimiy va boy merosini hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib o'rganish, milliy ong va istiqlol mafkurasining chuqur, teran va baquvvat asoslarini, ildizlarini oydinlashtirishga, yosh avlodni barkamol inson etib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shularni inobatga olgan holda, Alisher Navoiy asarlari mo'tabar qo'lyozmalarni o'rganishga o'zining katta hissasini qo'shib kelayotgan olim, professor Abdumajid Madraimov tomonidan "Alisher Navoiy badiiy asarlarining XV- XVI asrlardagi qo'lyozmalari" nomli monografiyasi nashr etildi.

Monografiyada Alisher Navoiy dostonlari – "Xamsa", "Lison ut-tayr" qo'lyozmalari va ularga ishlangan rasmlarning asosiy badiiy-estetik xususiyatlari o'rganilgan bo'lib, ular Abulqosim Firdavsiy, Fariduddin Attor, Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy dostonlariga ishlangan rasmlar bilan qiyoslab taddiq etilgan.

Monografiya jahoning turli muzeylari, shaxsiy kolleksiyalari, kutubxonalarida saqlanib kelinayotgan Alisher Navoiyning ko'plab qo'lyozma asarlari haqidagi batafsil, qimmatli ma'lumotlarni, ularga ishlangan rasmlarni o'z ichiga qamrab olgan. Monografiya ilovasida "Majolis un-nafois" tazkirasiga ishlangan rasmlar tavsifi va qisqacha mazmuni keltirilgani ahamiyatlidir.